

**ANAFILAKTIK SHOK - KELIB CHIQISHI, SABABLARI
VA SUD TIBBIYOTIDAGI O'RNI**

Yusupxo'jayeva Mahliyo Axrolxo'ja qizi

Tel: +99887 105 20 91

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi

Toshkent viloyati filiali sud-gistologik bo'lim laboranti

Annotatsiya: Maqolada anafilaktik shokning kelib chiqishi, sabablari va sud tibbiyotidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Anafilaktik shok, allergen, sud-tibbiy ekspertiza, sud-tibbiyoti.

Kirish. Anafilaktik shok- bu organizmning allergik reaksiyasining eng og'ir va hayot uchun xavfli shakli bo'lib, u qisqa vaqt ichida rivojlanadi va tez tibbiy yordam ko'rsatilmasa o'limga olib kelishi mumkin. U asosan qayta allergen bilan kontakt natijasida yuzaga keladi va o'tkir qon aylanishi hamda nafas yetishmovchiligi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy tibbiyotda anafilaktik shokning patogenezi, klinikasi va davolash usullari yaxshi o'rganilgan bo'lsada, u sud- tibbiyoti amaliyotida ham muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda allergik kasalliklar soni ortib borayotganligi sababli bu mavzu dolzarb hisoblanadi.

Amaliyot. Anafilaktik shok organizmga allergik modda (allergen) tushishi natijasida yuzaga keladi, bu holatda immun tizimi allergenga nisbatan haddan tashqari kuchli javob beradi, natijada organizmda jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

-dori vositalari- antibiotiklar- (ayniqsa, penitsillin guruhi) novokain, vitaminlar, vaksina va zardoblar.

-oziq ovqat mahsulotlari - yong'oq, shokolad, dengiz mahsulotlari va h.k.

-hasharot chaqishi- asalari, arilar, chaqqan hasharotlar zahari.

-maishiy va ishlab chiqarish allergenlari – lateks, kimyoviy moddalar.

-qon preparatlari va biologik moddalar.

Anafilaktik shok aksariyat hollarda parenteral yo'l bilan kiritilgan moddalar ta'sirida rivojlanadi. Allergen organizmga tushgandan so'ng kuchli allergik reaksiyalar boshlanadi, organizm avval allergen bilan sensibilizatsiya holatiga tushadi, qayta kontakt vaqtida allergen IgE antitanachalari bilan bog'lanib, mast hujayralar va bazofillardan biologik faol moddalar (gistamin, serotonin, bradikinin) ajralib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu moddalar quyidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi; qon tomirlar kengayishi, qon bosimining keskin pasayishi, bronxospazm, qon tomir devori o'tkazuvchanligining oshishi va to'qimalarda shish paydo bo'ladi, natijada gipovolemiya, gipoksiya va ko'p a'zolar yetishmovchiligi yuzaga keladi. Asosiy

simptomlariga esa terining qizarishi, qichishish, toshmalar toshishi, nafas olishning qiyinlashishi, qon bosimining tushishi, qorinda og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, taxikardiya kabilar kiradi. Anafilaktik shok juda tez bir necha soniyalarda rivojlanadi va shoshilinch tibbiy yordamni talab etadi. Bunday holatda tezkor yordam juda muhimdir, og'ir hollarda esa kollaps va klinik o'lim rivojlanishi mumkin. Shu sababli anafilaktik shok nafaqat klinik tibbiyotda balki, sud tibbiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Anafilaktik shok sud - tibbiyoti amaliyotida quyidagi holatlarda muhim ahamiyat kasb etadi: to'satdan o'lim xolatlari (ayniqsa dori preparatlari yuborilganda keyin), tibbiy xatolikni baholash (allergik anamnez yig'ilgan yoki yig'ilmaganligini tekshirish), profilaktika chora- tadbirlariga rioya qilinganligini aniqlash, dori vositalariga individual sezgirlik holatlarini baholash. Agar shaxs tibbiy muolaja, dori yuborish, emlash yoki hasharot chaqishi natijasida vafot etsa, anafilaktik shok ehtimoli sud- tibbiy ekspertiza tekshiruvi jarayonida alohida ko'rib chiqiladi. Sud tibbiyoti va laborator diagnostika sohasida esa anafilaktik shokni aniqlash bir necha usullarni o'z ichiga oladi, shu usullardan biri " Romanovskiy – Gimza " bo'yog'ida bo'yash amaliyotidir. Bu bo'yash amaliyoti o'lim sababini aniqlashda yordamchi laborator tekshiruv sifatida qo'llaniladi, u gemotologiya, mikrobiologiya va sud- tibbiyotida (hujayra o'zgarishlarini baholashda) keng qo'llaniladi. Romanovskiy – Gimza bo'yicha bo'yash usuli mikroskopik tekshiruvda keng qo'llaniladi. Bunday bo'yash usuli qon yoki to'qima preparatlarini maxsus rangli bo'yoqlar yordamida ko'rsatish usuli bo'lib, hujayralarda o'ziga xos morfologik xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Bo'yoq asosan quyidagi moddalarda iborat: eozin- kislotali bo'yoq bo'lib, hujayra sitoplazmasini pushti-qizil ranga bo'yaydi. Metilen ko'ki va azur bo'yoqlari – yadroni va donachalarni ko'k-binafsha rangga bo'yaydi, erituvchi va fiksator sifatida metanol ishlatiladi. Bu kombinatsiya hujayra tuzilmalarini aniq farqlash imkonini beradi, hujayra va qon tomirdagi o'zgarishlarni yaqol namoyon etadi. Anafilaktik shokning laborator tekshiruvi ko'pincha quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: leykositlar soni va turlari (preparatda eozinofillar va bazofillar soni ko'riladi); hujayra shishi va morfologik o'zgarishlar; mikroskopik o'zgarishlar (kapillyarlar shishi) va undan tashqari qonda IgE miqdorining oshishi va mast hujayralar degranulyatsiya belgilari aniqlanishi mumkin. Sud tibbiyoti ekspertizasida ushbu amaliyot - qon hujayralarining morfologik o'zgarishlarini aniqlashda, allergik reaksiyalar va yallig'lanish belgilarini baholashda, o'lim sababini aniqlashga yordam beruvchi tekshiruvlarda qo'llaniladi. Shu sababli u sud- tibbiyoti amaliyotida yordamchi, ammo muhim diagnostik vosita hisoblanadi.

Xulosa

Anafilaktik shok- tez rivojlanuvchi va hayot uchun xavfli reaksiya bo'lib, u o'z vaqtida tashxis qo'yilmasa va davolanmasa o'limga olib kelishi mumkin. Uning kelib

chiqish sabablarini bilish, profilaktika choralariga amal qilish va favqulodda yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Sud- tibbiyoti amaliyotida esa anafilaktik shok to'satdan o'lim sabablaridan biri sifatida chuqur tahlilni talab qiladi. To'g'ri va asosli sud- tibbiy ekspertiza adolatli qaror qabul qilishga yordam beradi va inson hayotini saqlashda muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Klinik allergologiya bo'yicha qo'llanma. Toshkent. 2020.
2. Sud tibbiyoti darsligi. Toshkent tibbiyot akademiyasi nashri. 2019.
3. A.D. Ado. Allergologiya asoslari. Moskva. 1980.